

**“TO‘QIMACHILIK SANOATIDA MAHALLIY BRENDLAR
OMMAPOBLIGINI OSHIRISHDA TASHQI SAVDO
OPERATSIYALARINING TAHLILI”**

Anvarov Nozimjon Maxsudbek o‘g‘li

Toshkent davlat Iqtisodiyot instituti

“Moliya va moliya texnologiyalari” kafedrasi asissenti

nozimanvarov40@gamil.com

Tel: +99897-988-22-77

Annotasiya: Mamlakatimizda 2017-yildan boshlab to‘qimachilik sanoati shiddatli darajada rivojlanib, O‘zbekiston tub ma‘noda to‘qimachilik sanoatida ulkan burilish yasab, taraqqiy topa boshladi, va to‘qimachilik sanoati O‘zbekiston iqtisodiyotining drayverlaridan biriga aylandi. Qisqa davr mobaynida, to‘qimachilik vatikuv – tirkotaj(tayyor mahsulotgacha bo‘lgan jarayon) sanoatini yanada rivojlantirish uchun zarur normativ xujjatlar va qulay sharoitlar yaratish, xalqaro standart talablar asosida faoliyat olib boradigan tuzilmalar tashkil etildi. Keying yillarda esa paxta tolasini chuqur qayta ishlash negizida yuqori qo‘shilgan narxli, korxonalar bozorlarda talab qilinadigan tayyor to‘qimachilik va tikish-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish belgilangan. Shu bilan, Hozirgi kunda O‘zbekistonda engil sanoat va to‘qimachilik sohasi tarmoqlari jadal rivojlanib bormoqda.

Kalit so‘zlar: to‘qimachilik sanoatida, tirkotaj, paxta tolasini, klaster ,eksport, import, savdosi, kapital kredit, valyuta, yalpi ichki mahsulotda.

Mamlakatimizda 2017-yildan boshlab to‘qimachilik sanoati shiddatli darajada rivojlanib, O‘zbekiston tub ma‘noda to‘qimachilik sanoatida ulkan burilish yasab, taraqqiy topa boshladi, va to‘qimachilik sanoati O‘zbekiston iqtisodiyotining drayverlaridan biriga aylandi. Qisqa davr mobaynida, to‘qimachilik vatikuv – tirkotaj(tayyor mahsulotgacha bo‘lgan jarayon) sanoatini yanada rivojlantirish uchun zarur normativ xujjatlar va qulay sharoitlar yaratish, xalqaro standart talablar asosida faoliyat olib boradigan tuzilmalar tashkil etildi. Keying yillarda esa paxta tolasini chuqur qayta ishlash negizida yuqori qo‘shilgan narxli, korxonalar bozorlarda talab qilinadigan tayyor to‘qimachilik va tikish-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish belgilangan. Shu bilan, Hozirgi kunda O‘zbekistonda engil sanoat va to‘qimachilik sohasi tarmoqlari jadal rivojlanib bormoqda.

Yurtimizda qabul qilingan qator qaror va farmonlar, shu jumladan, Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.01.2023 yildagi PF-2-sonli “Paxta to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-

quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning export salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmonlarida mamlakatimizda milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish va iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o‘sish sur‘atlarini ta’minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot - 1,6 baravar oshirish hamda to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2-3 baravarga oshirish, to‘qimachilik sohasining eksport salohiyatini 2023 yil yakuniga ko‘ra 5 milliard AQSH dollariga etkazish, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini 65 dan 81 foizga oshirish hamda 35000 ta bo‘sh ish joyini to‘ldirish rejalashtirilgan.

2017-yildan boshlab mamlakatimizning jahon iqtisodiyotiga integratsiyasini ta’minlash, eksport va import operatsiyalari hajmini yanada kengaytirish, raqamli texnologiyalarni ishlab chiqarish tarmoqlariga keng joriy etish orqali sifatli va xalqaro bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga e’tibor qaratilishiga qaramasdan, tashqi savdo balansi defitsiti ortib bormoqda. Xususan, 2017-yilda tashqi savdo balansi defitsiti 1458,7 mln. dollarni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib qariyb 12 barobarga ortib, 13,7 mlrd dollarga yetdi. 2017-2023-yillarda tashqi savdo balansi defitsitining kamayishi koronavirus pandemisi davrida, ya’ni 2020-yilda 2019-yilga nisbatan 782,1 mln. dollarga yaxshilangan. 2020-yilni inobatga olmagan holda mamlakatimizda import operatsiyalari eksport operatsiyalariga qaraganda yildan-yilga ko‘payib borganligini ta’kidlash mumkin.

2022-2023-yillarda O‘zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi va saldosi (mln. AQSh dollari)¹

Ko'rsatkichlar	2022 y.	2023 y.	O'sish sur'ati, foizda	Jamiga nisbatan foizda
Tashqi savdo aylanmasi	50500,3	62567,4	23,9	100
Eksport	19732,6	24426,2	23,8	39
Tovarlarni	11166	11092,7	-0,65	45,4
Xizmatlar	4456,7	5179,7	16,2	21,2
Nomonetar oltin	4110,3	8153,8	98,4	33,4
Import	30767,8	38141,2	24	61
Tovarlarni	28220,3	35574,8	26,1	93,3
Xizmatlar	2547,5	2566,4	0,7	6,7
Saldo	-11035,2	-13715	-	-

¹ www.stat.uz

Har bir davlat xalqaro savdo operatsiyalarini amalga oshirishda yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishga intiladi. Dunyoning barcha mamlakatlari jahon bozoridagi o'zgarishlarga bardosh bera oladigan va xaridorbop mahsulotlar ishlab chiqarish strategiyasiga ega bo'lishi tabiiy. Tashqi savdo operatsiyalari mamlakat iqtisodiyoti taraqqiyotiga va xalqaro moliyaviy barqarorligiga ta'sir etadi. Hozirgi kunda mamlakatimizning xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlanishi natijasida tashqi savdo aloqalari rivojlanmoqda. Shuningdek, mamlakatimizda faoliyat yurituvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar milliy kompaniyalarga xalqaro bozorlarda tajriba orttirishga imkon yaratmoqda. Ushbu islohotlar pirovardida mamlakatimizda ishlab chiqarilgan tovarlarni jahon bozorida raqobatbardoshlik darajasini oshirishga qaratilmoqda.

Eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan islohotlarni muvaffaqiyatli amaliyotga joriy etilishi 2023 yilda mamlakatimiz tashqi savdo aylanmasini 62,6 mlrd. AQSh dollariga yetishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. 2023 yilda tashqi savdo aylanmasi 2022 yilga nisbatan 23,9 foizga yoki 12,1 mlrd. AQSh dollariga oshdi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 28.01.2022 yildagi PF-60-son,.
2. Philip Kotler: Marketing Essentials. (1984). / Филип Котлер: Основы маркетинга. Перевод на русский язык: Бобров, В.Б.-М., (1990).
3. Томпсон, А.А., Маргарет Питереф., Джон Гембл. (2015). Стратегический менеджмент. Создание конкурентного преимущества. Вильямс.
4. Шифрин, М.Б. (2019). Стратегический менеджмент. Издательство Юрайт.
5. Шульгина, Л.В., Овсянников, С.В. (2009/3). Актуальные проблемы разработки антикризисной стратегии промышленного предприятия. ФЭС:Финансы, Экономика, Стратегия. (11-15)
6. Таласов, М.Ж., Тулеметова, А.С., (2008). Пути достижения конкурентоспособности продукции текстильной промышленности. Сборник научных трудов вузов России. (Проблемы экономики, финансов и управление производством), (25).
7. Горина, Я.М., (2012). Факторная оценка конкурентоспособности предприятий текстильной промышленности. Вестник Череповецкого государственного университета, (41).
8. Yo'ldoshev, N.Q. (2019). Strategik menejment. Darslik.-T.: Iqtisodiyot.,122 b

9. Kattakishiyev B., Mamayusupov I. (2008). Strategik menejment fanidan praktikum. – T.,Fan va texnologiya, 232 b.

1. www.gov.uz- O‘zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati portali.
2. www.press-service.uz- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati rasmiy sayti.
3. www.cbu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti.
4. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat statsitika agentligi.
5. www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining rasmiy sayti ma’lumoti.
6. www.cer.uz - Iqtisodiy tadqiqotlar Markazining rasmiy sayti.
7. www.ipakyulibank.uz AITB “ Ipak yo`li banki rasmiy sayti.